



XALQARO TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVI VA ZAMONAVIY LOGISTIKA STRATEGIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18688952>

G'ulomov Rustam Dilshod o'g'li

*Transport vazirligi Avtomobil transportida metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi*

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda ishlab chiqarishning tez sur'atlarda o'sishi va turli korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar assortimenti kengayishi, shuningdek, omborlar tashkil etilishi, bu jarayonlar korxonaning tovar aylanmasining oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi esa korxonani boshqarishda logistikaning ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu tezis milliy va xorijiy amaliyotlarda transport-logistika loyihalari samaradorligini qiyosiy tahlil qiladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda logistika sohasining holati, transport-logistika loyihalarini boshqarishning uslubiy yondashuvlari va samaradorlikni baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida transport-logistika sohasini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar va amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Transport-logistika loyihalari, samaradorlik, milliy amaliyot, xorijiy amaliyot, logistika tizimlari.

Аннотация: В современном мире быстрый рост производства и расширение ассортимента продукции, выпускаемой различными предприятиями, а также организация складских помещений влияют на увеличение товарооборота предприятия. Все это еще больше повышает значимость логистики в управлении предприятием. В данной работе представлен сравнительный анализ эффективности транспортно-логистических проектов в отечественной и зарубежной практике. Рассмотрены состояние логистического сектора в развитых и развивающихся странах, методологические подходы к управлению транспортно-логистическими проектами и система показателей, используемых для оценки эффективности. В статье также анализируются перспективные направления и текущая работа по развитию транспортно-логистического сектора в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Транспортно-логистические проекты, эффективность, отечественная практика, зарубежная практика, логистические системы.



Abstract: *In the modern world, the rapid growth of production and the expansion of the range of goods produced by various enterprises, as well as the organization of warehouses, these processes affect the increase in the turnover of the enterprise. All this further increases the importance of logistics in managing the enterprise. This thesis provides a comparative analysis of the effectiveness of transport and logistics projects in national and foreign practices. The state of the logistics sector in developed and developing countries, methodological approaches to managing transport and logistics projects, and the system of indicators used to assess effectiveness are considered. The article also analyzes promising areas and ongoing work on the development of the transport and logistics sector in the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *Transport and logistics projects, effectiveness, national practice, foreign practice, logistics systems.*

KIRISH

Transport-logistika sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Transport-logistika loyihalari samaradorligi esa mamlakatning raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada milliy va xorijiy amaliyotlarda transport-logistika loyihalari samaradorligi qiyosiy tahlil qilinadi va O'zbekiston Respublikasida ushbu sohani rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Dunyo miqyosida muqobil transport yo'laklarini shakllantirish, barqaror logistika zanjirlarini yaratish, tranzit yo'llardagi yangi yo'nalishlarni ochish va dunyo okeaniga chiqish yo'lida samarali raqobatli hamkorlikka o'tish, davlatlarning tabiiy geografik joylashuvini hisobga olgan holda ichki va xalqaro yuk tashishlar uchun zarur infrastrukturani, jumladan zamonaviy klasterlarni yaratish, tariflar va bojxona tizimlarini takomillashtirish, transport-

logistika tizimi subyektlarining investitsion jozibadorligini oshirish va ushbu xizmatlar istiqbollarini belgilash kabi masalalarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ochiq dengizga chiqish yo'laklarining yo'qligi sababli ichki va tashqi yuklarni import va eksport qilishda temir yo'l, havo va avtomobil yo'llariga asoslangan transport-logistika tizimlarini rivojlantirish yo'li tanlangan. "O'zbekiston 2030" strategiyasida "O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish" mavzusida maxsus 53-bandda respublikamiz transport tizimlarini modernizatsiya qilish va isloh qilishga doir asosiy maqsadlar va vazifalar belgilangan. Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish transport-logistik xizmatlarni rivojlantirish yo'llari, samaradorligini oshirish omillari, imkoniyatlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha



chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Asosiy qism

Global savdoda logistikaning tarixiy rivojlanishi qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi, ammo vaqt o'tishi bilan sezilarli yutuqlarga erishildi. Jahon savdosida logistikaning tarixiy rivojlanishiga umumiy nuqtai nazariga e'tibor qaratadigan bo'lsak qadimgi davrlarda misrliklar, finikiyaliklar va rimliklar kabi sivilizatsiyalar uzoq masofalarga tovarlarni tashish bilan bog'liq savdo tarmoqlarini o'rnatdilar. Ushbu dastlabki savdo tarmoqlari tovarlar harakatini osonlashtirish uchun qo'l mehnati, hayvonlar transporti va dengiz savdo yo'llariga tayangan.

Kashfiyotlar davrida (15-17-asrlar) savdoning o'rganilishi va kengayishi dengiz savdo yo'llarining o'sishiga olib keldi. Yirik portlarning barpo etilishi va yelkanli kemalardan foydalanish jahon miqyosida yuklarni tashish imkonini berdi.

Dengiz savdosining o'sishi yuklarni yuklash, tushirish va portlarda saqlashni boshqarish uchun logistika operatsiyalarini talab qildi.

18-asrda boshlangan sanoat inqilobi logistika rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Bug'da ishlaydigan transportning, jumladan, paroxodlar va temir yo'llarning paydo bo'lishi yuk tashish tezligi va sig'imida inqilob qildi.

Ishlab chiqarish va savdoning kengayishi bilan logistika tizimlari omborlarni boshqarish, inventar nazorati

va transportni muvofiqlashtirishni qamrab ola boshladi.

20-asrning boshlarida texnologiya va transport sohasidagi yutuqlar tufayli logistika sohasida qo'shimcha yangiliklar paydo bo'ldi. Motorli transport vositalarining, shu jumladan yuk mashinalarining joriy etilishi quruqlikdagi transportda inqilob qildi, bu esa yanada moslashuvchanlik va foydalanish imkoniyatini berdi.

1950-1960-yillarda yuk tashish konteynerlarini standartlashtirish dengiz transportida inqilob qildi, samarali yuk tashish va intermodal tashishni osonlashtirdi.

20-asr oxiri va 21-asr boshlari axborot texnologiyalarining logistika operatsiyalariga integratsiyalashuviga guvoh bo'ldi. Kompyuterlashtirilgan tizimlar, elektron ma'lumotlar almashinuvi va ta'minot zanjiri boshqaruvi dasturiy ta'minotining rivojlanishi logistika jarayonlarining samaradorligi va ko'rinishini oshirdi.

Globallashtirishning kuchayishi va global qiymat zanjirlarining o'rnatilishi logistika operatsiyalarining murakkablashishiga olib keldi, bu ko'plab mamlakatlar va manfaatdor tomonlar o'rtasida ko'proq muvofiqlashtirish va integratsiyani talab qiladi. 21-asr logistika texnologiyalari, jumladan, IoT, AI, robototexnika va blokcheyn sohasida tez o'sishni kuzatdi.

Ushbu texnologiyalar real vaqt rejimida jo'natmalarni kuzatish va monitoring qilish, talabni bashorat qilish



uchun bashoratli tahlillar, ombor operatsiyalarini avtomatlashtirish, ta'minot zanjiri ko'rinishi va shaffofligini oshirish imkonini berdi..

Tarix davomida logistika asosiy savdo tarmoqlaridan transport, omborxona, inventarlarni boshqarish va axborot tizimlarini qamrab oluvchi murakkab tizimlarga aylandi. Global savdoda logistikaning rivojlanishi texnologik taraqqiyot, savdo tarmoqlarining kengayishi va ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish zarurati bilan bog'liq. Bugungi kunda logistika global savdoni osonlashtirishda, butun dunyo bo'ylab biznesni bog'lashda va iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Logistika iqtisodiy o'sish va rivojlanishga bevosita ta'sir qiladi. Samarali logistika tizimlari savdo xarajatlarini kamaytiradi, ta'minot zanjiri samaradorligini oshiradi va korxonalarining umumiy raqobatbardoshligini oshiradi. Bu, o'z navbatida, savdo hajmining oshishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va turmush darajasining oshishiga olib keladi, Logistika bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va chegara operatsiyalarini yaxshilash orqali xalqaro savdoni osonlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda (masalan, AQSH, Germaniya, Yaponiya) transport-logistika sohasi yuqori darajada rivojlangan. Bu mamlakatlarda

zamonaviy logistika texnologiyalari va boshqaruv usullaridan keng foydalaniladi. Logistika infratuzilmasi rivojlangan, transport xizmatlari sifati yuqori va raqobatbardoshlik darajasi yuqori.

O'zbekiston Respublikasida transport-logistika sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Transport infratuzilmasini yangilash, logistika markazlarini tashkil etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Milliy amaliyotda transport-logistika loyihalarining samaradorligi hali rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetmagan bo'lsa-da, muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining rivoji ko'p jihatdan transport logistikasiga bog'liq. Avval bu vazifani savdo karvonlari bajarib kelgan bo'lsa, hozirgi kunda zamonaviy transport tizimi va ularni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma davlatlarni bir-biriga bog'lamoqda. Ayniqsa, jahondagi globallashuv jarayonlari davomida bu sohaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Logistika tizimi mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismi sifatida ta'riflanadi. Buning sababi, samarali logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xomashyo harakatini optimallashtirib, xaridorlarga tovar va xizmatlarni qulay sharoitlarda va arzon narxlarda yetkazib berishni ta'minlaydi, shuningdek, bozordagi raqobatni oshiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning



iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

2023-yil 9-avgustda davlatimiz rahbari xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha taqdimot bilan tanishar ekan, bu yil O'zbekiston mahsulotlari 32 ta yangi bozorga kirib borgani va Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari ham jadallashayotganini ta'kidladi.

Mamlakatimizda eksport qiluvchi korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki iqtisodiyotda ishlab chiqarishning ahamiyati shunchalik katta bo'lsa, mahsulotlarni yetkazib berish ham shu darajada muhimdir. Ayniqsa, hozirgi kunda dunyoda logistika muammolari kuchaygan bir paytda bu masala juda dolzarbdir.

Jahon transport va logistika tizimi tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, transport xizmatlari bozori 2026-yilga kelib 9,6 foiz o'sish sur'ati bilan 10 394,13 milliard dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Shu sababli, transport sohasidagi statistikalar va ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan yilgi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz Jahon bankining "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'ona yuqorilagan. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida transport va logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish, temir yo'l tarmoqlarini

elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish, tashqi savdo uchun "yashil yo'laklar" yaratish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga oshirish vazifalari belgilangan.

Davlatimiz rahbari 2017-yilda Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekiston tashqi savdo yuklarini jahon va mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqish uchun ishonchli transport va tranzit yo'laklarini shakllantirish, logistik yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish va qo'shnilar bilan amaliy muzokaralar o'tkazish zarurligini ta'kidlagan. Jumladan, tranzit davlatlar — Turkmaniston, Eron, Qozog'iston, Rossiya, Ozarbayjon va Gruziya hududlaridan asosiy eksport yuklarini tranzit shaklida tashishda preferentsiyalarni olish, xorijiy va mahalliy investorlarning logistika sohasidagi loyihalarini amalga oshirishini rag'batlantirish zarurligi ko'rsatildi.

Xitoyning "Bir makon — bir yo'l" tashabbusi doirasida mamlakatimizning transport kommunikatsiyalari infratuzilmasi imkoniyatlari kengaytirildi. Milliy yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlarga qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida "Milliy logistika portali" ishga tushirildi. Umuman olganda, O'zbekistonda keyingi yillarda sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan zamonaviy infratuzilmalar yaratish orqali avtomobil va temir yo'l yo'nalishlarida yirik tranzit markazlari tashkil etish rejalashtirilmoqda.



O'zbekiston Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kengroq jalb qilish maqsadida yirik infratuzilma loyihalarini, jumladan, Surxon – Puli-Xumri elektr uzatish tarmog'i va Mozori Sharifdan Hind okeani portlariga chiquvchi temir yo'lni qurishni rejalashtirmoqda. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun 4,8 milliard dollar miqdorida kredit mablag'lari jalb etilishi ko'zda tutilgan. Dastlabki bosqich uchun Jahon banki 35 million dollar ajratgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, uzunligi 600 kilometr bo'lgan Mozori Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'li foydalanishga topshirilgach, dastlabki yillardayoq yuk tashish hajmi 10 million tonnaga yetishi mumkin. Mutaxassislarning fikricha, Afg'onistonning transport va infratuzilma salohiyatidan to'liq foydalanilsa, O'zbekistondan Pokistonga yuk tashish vaqti 35 kundan 3 kunga qisqaradi. Bu esa Rossiya va Pokiston o'rtasidagi transport xarajatlarini 20 foizga, Markaziy Osiyo va Pokiston davlatlari o'rtasida esa 35 foizga kamaytirishi mumkin.

Milliy va xorijiy amaliyotni qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirishga ko'proq investitsiya kiritish zarur.

2) Logistika sohasida zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etishni jadallashtirish kerak.

3) Xorijiy tajriba asosida milliy logistika kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim.

O'zbekistonda transport-logistika sohasini rivojlantirish uchun quyidagi istiqbolli yo'nalishlar mavjud:

Transport koridorlarini yaratish va rivojlantirish.

Logistika markazlarining tarmog'ini kengaytirish.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali logistika jarayonlarini optimallashtirish.

Xalqaro logistika kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Korxona boshqaruvida logistika yondashuvining o'ziga xos yangiligi, bu faoliyatning barcha sohalaridagi cheklangan munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, ular birgalikda tovar-o'tkazuvchan tashkiliy tizimlarni shakllantirish, boshqaruvda oson va ish samaradorligini yuqori darajada namoyon etishdir.

Iqtisodiy sohada yuqori rivojlangan mamlakatlar va Rossiyaning yirik korxonalari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, logistika zamonaviy korxonalarining biznes jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Turli biznes-jarayonlarni samarali rivojlantirish, ularning tashqi va ichki bozorlarda raqobat qilish qobiliyati asosan korxonaning logistika tizimi va umuman korxonaning logistika menejmenti rivojlanishi bilan belgilanadi.

Transport logistikasining samaradorligi asosan kompaniyaning strategiyasi va taktikasiga bog'liq. Xuddi shu paytni o'zida, rahbarlari kompleks



marketing tadqiqotlar o'tkazish kerak (yuk, narxlar, xom ashyo yetkazib beruvchilar, tayyor mahsulotlar iste'molchilar, raqobatchilar), muqobil transport usullari va yuk tashish usullarini ko'rib, yozuvlarni ushlab qolish va ularning ish eng yaxshi natija va uni erishish uchun minimal xarajatlarni olish uchun xarajatlarini tahlil etish zarur.

Logistika mutaxassislarining fikriga ko'ra, logistika sohasida sanoat va transport kompaniyalari o'rtasida hamkorlikni kengaytirishga to'sqinlik qiluvchi muhim sabab yuk egasining xom ashyo va tayyor mahsulotlar harakati ustidan nazoratni yo'qotish xavfi hisoblanadi. Bu sabab, qoida tariqasida, subektiv xarakterga ega bo'lib, birgalikda ishlash tajribasi to'planib, o'zaro ishonch mustahkamlanib borishi bilan bartaraf etilishi mumkin. Buni hozirgi vaqtda logistika funksiyalarini ishlab chiqarish firmalaridan transport firmalariga o'tkazish jarayoni jadal rivojlanayotgani tasdiqlaydi. Bunga axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ham yordam beradi, buning natijasida transport kompaniyalari elektron ma'lumot almashish orqali jo'natuvchilar bilan o'zaro aloqalarni kengaytiradi va yaxshilaydi.

Xulosa: Xulosa sifatida aytish mumkinki, transport-logistika loyihalari samaradorligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida transport-logistika sohasini rivojlantirish uchun xorijiy tajribani o'rganish, investitsiyalarni ko'paytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

Hududlarni mamlakat ichidagi yoki chegaralar orqali bog'laydigan integratsiyalashgan logistika tarmoqlari iqtisodiy integratsiyani va savdo oqimlarini kuchaytirib, kengroq miqyosda iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Kuchli logistika infratuzilmasiga ega mamlakatlar samarali ta'minot zanjiri va tarqatish tarmoqlarini izlayotgan xorijiy investorlar uchun yanada jozibador. Yaxshilangan logistika infratuzilmasi biznes xarajatlari va xatarlarini kamaytiradi, investitsiya muhitini yanada qulay qiladi.

Logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali rag'batlantirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi kapital qo'yilmalarni ko'paytirish, texnologiyalar transferi va ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-seritabrdagi PF-158-son Farmoni. 11.09.2023-yil.



2. Zokirkhan. Yusufkhonov, Malik Ravshanov, Akmal Kamolov, and Elmira Kamalova. Improving the position of the logistics performance index of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 264, 05028 (2021),
3. Кодиров Т.У., Юсуфхонов З.Ю. У., & Ахмедов Д.Т. У. (2021). Анализ факторов, влияющих рейтинг индекса эффективности логистики Республики Узбекистан. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (6), 245-252.
4. Qudbiyev, N. T., Qudbiyeva, G. A. Q., & Abduraximov, B. U. O. (2022). LOGISTIKADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI. Scientific progress, 3(1), 133-142.
5. Tohirovich, Q. N. (2021). XALQARO MOLIVAVIY HISOB STANDARTLARIGA O'RTISH DOLZARBLIGI. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 1(2), 56-64.
6. Shaxrinoz Avazxonovna Kurbonova (2021). MAHSULOT TANNARXI HISOBIGA OLIISHDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Scientific progress, 2 (8), 603-607.
7. Ugli, A. B. U., Tohirovich, Q. N., Khatamovna, R. S., & Nigoraxon, M. (2021). Current Assets and Their Role in Company Activity. Journal of Marketing and Emerging Economics, 1(7), 25-30.
8. Munavvar, A. (2024). AQLI ZAIF O'QUVCHILARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK TERAPIYANING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(32), 91-95.
9. Numanjanovna, A. M. (2026). IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' ORAL SPEECH BASED ON FAIRY TALES IN READING LESSONS. Shokh Articles Library, 1(1).